

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABRAYQULOV BEKZOD IRGASHOVICH

KLASTER TIZIMIDA SIFATLI XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Abrayqulov Bekzod Irgashovich

Klaster tizimida sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini
takomillashtirish..... 5

Абрайкулов Бекзод Иргашович

Совершенствование технологии производства качественного шелка-
сырца в кластерной системе 23

Abrayqulov Bekzod Irgashovich

Improvement of technology in the production of high-quality raw silk in a
cluster system..... 44

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ 48

List of published works.....

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABRAYQULOV BEKZOD IRGASHOVICH

**KLASTER TIZIMIDA SIFATLI XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyasi.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Avazov Komil Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Xakimov Sherqul Sherg'oziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Sharipov Jurabek Shomil o'g'li
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 16 dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5.tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (256-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 2 dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 2 dekabr 256-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ipakchilik, pilla yetishtirish va ipak ishlab chiqarish bilan bugungi kunda 20 dan ortiq davlatlarlar shug'ullanib, ular boqishning zamonaviy usullari, texnologiya va texnika vositalarini qo'llashda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Dunyoda pilla yetishtirish miqdori bo'yicha birinchi o'rinda Xitoy, ikkinchi o'rinda Hindiston, uchinchi o'rinda O'zbekiston, to'rtinchi o'rinda Koreya turadi. Nafaqat yetishtirilayotgan pilla hajmini oshirish, shu bilan bir qatorda, undan jahon andozalariga mos keladigan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, tarmoq korxonalari samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu borada ipakchilik bilan shug'ullanuvchi davlatlar hamda ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida pilla yetishtirishda tut ipak qurtining biologik va texnologik ko'rsatkichlariga salbiy ekologik omillar ta'sirini aniqlash hamda o'ta muhim hisoblangan ipak tolasining texnologik ko'rsatkichlarini pasayishini oldini olish, yuqori samara beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kabi ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida pilla yetishtiruvchi mamlakatlarning geografik joylashuvini inobatga olgan holda, turli iqlim sharoitlariga moslashgan, ayniqsa yuqori harorat va namlikka chidamli ipak qurtining yangi zot va duragaylarini yaratish borasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, klaster tizimida sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada o'zgaruvchan tabiiy iqlim sharoitlarining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida turli biologik faol moddalar, organik polimer birikmalardan foydalanish, genetika va seleksiya jarayonlarining yangi samarali uslubiyatlaridan foydalangan holda tabiiy iqlim sharoitiga mos duragaylar yaratish hamda pilla hosildorligi va texnologik xususiyatlariga turli ekologik omillar ta'sirini kamaytirish borasida yangi ilg'or texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq qilish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan hisoblanadi.

Respublikamizning bir quti urug'dan olinadigan pilla hosildorligi yuqori, ingichka ipak tolali, chuvishga tayyorlash va chuvish jarayonlarini takomillashtirib, ulardan sifatli xom ipak ishlab chiqarish hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish orqali yetishtirilgan xomashyolardan sifatli mahsulotlar olishga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...ipak mahsulotidan shoyi gazlamalari tayyor mahsulotlari, shuningdek import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, chidamlilik potensialidan foydalangan holda yetishtiriladigan pilla sifati va texnologik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan yangi texnologiyalarni tadqiq etish hamda yuqori sifatli ipak xomashyosi ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ-2856-son "O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ,

2019-yil 31-iyuldagi PQ-4411-son “Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-son “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda pillani chuvib, sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, tayyor ipak mahsulotlarini yaratishda yuqori talab va xaridorgir bo‘lgan yangi assortimentlarni ishlab chiqish masalalari bo‘yicha bir qator xorij olimlari: W.Carr, H.Dong, S.Lee (AQSH), K.K.Goswami, S.K.Chaudhuri, S.Bandyopadhyay (Hindiston), Omidreza Kakueyea, Vahid Fathollahia (Eron) S.Demey, Michel Van de Wiele, S.Gunze, J.Mo, S.Pan, H.Harada va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Pillalarni qayta ishlash va xom ipak olish, eshilgan, kombinatsiyalangan, yigirilgan va boshqa xususiyatlari yaxshilangan iplar olish uchun ishlatiladigan xom-ashyo tuzilishini tadqiq qilish, eshilgan iplar olish, zamonaviy dastgohlarda ip tayyorlash jarayonini tashkil etish uchun nazariy va amaliy asosni yaratish bo‘yicha: V.A.Usenko, G.K.Kukin, E.B.Rubinov, R.Z.Burnashev, M.M.Muxamedov, X.A.Alimova, M.Niyazaliyev, SH.A.Qodirov, G.S.Pozdnyakov, I.Z.Burnashev, V.A.Strunnikov, SH.R.Umarov, U.N.Nasrillayev, A.B.Yakubov, A.E.Gulamov, N.M.Islambekova, J.A.Axmedov, N.Kobulova, SH.Esonova, K.R.Avazov kabi bir qator olimlar tadqiqotlar olib borganlar va bu soha ilmining rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Lekin, hozirgacha ma‘lum bo‘lgan adabiyotlarda iqtisodiy jihatdan tejamkor pillalarni individual chuvish dastgohini yaratish va sifatli xom ipak ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmaganligini ko‘rsatdi. Undan tashqari yirik pillakashlik korxonalarini tashkil etish uni ishchi kuchi bilan ta‘minlash, chekka tumanlardan ko‘plab ishchilarni transportda tashish natijasida ishchilarni ko‘p vaqtini yo‘lga sarflanishiga olib keladi. Ayniqsa korxonaning asosiy ishchilari bo‘lgan ayollarimiz uchun ko‘pgina noqulayliklar va qiyinchiliklarini yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IOT-2015-2 raqamli “Pillani dastlabki ishlashning takomillashtirilgan, resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq etish” hamda OT-F4-14 “Pillani chuvishga tayyorlash va xom ipak ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining nazariy asoslarini yaratish” mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Individual pilla chuvish dastgohini yaratish va sifatli xom ipak olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

tut ipak qurtini parvarishlash jarayonida qurtning dastaga chiqish vaqtining pilla navlari va xom ipak chiqishiga bog'liqligini aniqlash;

chuvish jarayonida pillaning suvdagi harakati va ipning taranglik kuchlarini nazariy tahlil qilish;

pillalarni individual chuvishning yangi qurilmasini yaratish va uning texnologik rejimlarini ishlab chiqish;

individual chuvish dastgohida xom ipak olish jarayonini matematik modellashtirish;

chuvish jarayonida jipslik ko'rsatkichini oshirish asosida sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xorijiy va mahalliy zot pillalari, xom ipak olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida KMS-10 mexanik va pillalarni individual chuvish dastgohlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik tahlil, nazariy mexanika, amaliy matematikaning kichik kvadratlar, tajriba natijalarining qayta ishlashning to'la faktorli experiment va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tut ipak qurtini parvarishlash jarayonida qurtning dastaga chiqish vaqtining pilla navlari va xom ipak chiqishiga bog'liqligi ko'p faktorli regression modellar qurush usuli yordamida ishlab chiqarilgan;

chuvish jarayonida pillaning suvdagi harakati va ipning taranglik kuchlarini tahlil qilish asosida suv va pillalarning aylanishini xom ipakning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri isbotlangan;

klaster tizimida pillalarni individual chuvishning yangi qurilmasi chuvish tozining aylanishi hosil qilish hamda xom ipakka buram berish asosida yaratilgan va uning texnologik rejimlari ishlab chiqilgan;

jipslik ko'rsatkichi oshishiga erishgan holda, sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan pillalarni individual chuvish dastgohini o'rnatish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pillalarni individual chuvishning O'zbekiston Respublikasi patenti bilan himoyalangan yangi dastgohi yaratilgan va optimal parametrlari ishlab chiqilgan;

pillalardan yuqori chiziqli zichlikdagi xom ipak olishning Respublikasi patenti bilan himoyalangan yangi takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilgan va optimal parametrlari ishlab chiqilgan;

pillalarni individual chuvish dastgohida sifatli xom ipak olish hamda ishlab chiqarish sarfini kamaytirish orqali korxonada samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajriba materiallarining statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning mos kelishi, matematik-statistik qayta ishlovlar 95 % ishonchlilik darajasi bilan amalga oshirilganligi, tajribalar

xatoligi 5 % dan ortmaganligi, tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pillalarni individual chuvish dastgohi yaratilib chuvish texnologik rejimlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pillalardan samarali foydalanish va energiya sarfini kamaytirgan holda korxonalar samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy jihatdan tejamkor individual pillalarni chuvish dastgohi yaratilib, unda sifatli xom ipak olish texnologiyasi taklif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sifatli xom ipak olishda individual pillalarni chuvish dastgohi va texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

pillalarni chuvish uchun dastgohiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazining ixtiroga patenti (IAP 07079, 2022 y.) olingan. Natijada pillalarni individual chuvib sifatli xom ipak olish imkonini bergan;

pillalarni individual chuvish dastgohining resurstejamkor texnologiyasi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda, jumladan "Koson agropilla" "Sho'rchi tayyorlov agro-pilla" MCHJ, hamda "Surxon silk pro" korxonalarida joriy etilgan (2025-yil 20-avgustdagi №4-2/1432-son ma'lumotnomasi). Natijada pillalarni individual chuvishning samarali texnologiyasi sifatli xom ipak ishlab chiqarish, pillalardan chuvib olingan xom ipak 3A sinfiga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 10 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan 4 ta xalqaro, 6 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, undan 4 tasi chet elda chop etilgan. O'zbekiston Respublikasining 3 ta patentlari (shulardan 1 ta ixtiroga va 2 ta foydali modelga) olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalarni belgilaydi, uning obekti va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning "Mavzuga oid adabiyotlar tahlili" deb nomlangan birinchi bobida pilla yetishtirish hamda xom ipak ishlab chiqarish holati, istiqbollari, pillalarni chuvish dastgohlari va texnologiyasiga va sifatli xom ipak olishga hamda

xom ipak ishlab chiqarish jarayonini jipslik ko'rsatkichiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil etildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Hozirgi kunda 60 dan ortiq mamlakatda pilladan mahsulot ishlab chiqariladi, lekin uning 20 dan ziyodidagina pilla yetishtiriladi. Dunyoda bu borada birinchi o'rinda Xitoy, ikkinchi o'rinda Hindiston, uchinchi o'rinda O'zbekiston turadi. Aholi jon boshiga hisoblaganda, yurtimiz yetakchilik qiladi. Bir qutidan olinadigan pilla hosili XXR da 85, Hindistonda 80 va O'zbekistonda esa, 60 kilogramni tashkil etadi.

Dunyo bo'yicha ipak ishlab chiqarish keyingi 5 yilda 15,7 foizga oshgan va ayni paytda yillik yalpi ipak mahsuloti hajmi 192,694 tonnaga teng bo'lib, uning 80 foizi Xitoy, 16 foizi Hindiston, 2,5 foizi O'zbekiston, qolgan qismi boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mutaxasislarning tahlillariga ko'ra, sohadagi daromadning asosiy qismini xomashyo yetishtiruvchilar emas, tayyor mahsulot ishlab chiqarganlar oladi. Chunki, jahon bozorida bir kilogramm ipakning bahosi 38 - 40 AQSH dollariga teng. Agar u kalava qilinsa, narxi 55 dollargacha ortadi. Undan mato to'qib, kiyim-kechak tikib sotilsa, daromad 3 barobar ko'payadi. Vaholonki, ipak kalavasining har bir kilogrammidan 11 metrgacha mato to'qiladi. Keyingi paytda ipakdan gilam to'qishga talab ortib boryapti. Masalan, bitta gilam to'qish uchun o'rtacha 10 kilogramm ipak kalavasi kerak. Shu hisobda, ipak ip uchun 500 - 600 dollar atrofida mablag' sarflanadi. Gilam tayyor bo'lgach, uning bahosi 10 marotaba oshib ketadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi bozorda talab katta bo'lgan mahsulot-pilla yetishtirish, tabiiy ipak mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Dunyoda pilla yetishtirish va ularni qayta ishlash borasida Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Eron, Tailand, Vetnam, Shimoliy Koreya, Braziliya, Fransiya kabi davlatlar yetakchi bo'lib, ipakni qayta ishlash texnika va texnologiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari samarali olib borilmoqda. Hozirgi kunda jahonda yetishtiriladigan pillalar va ulardan olinadigan ipakning asosiy qismi Xitoy va Hindistonda ishlab chiqarilmoqda.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi mavjud klasterlar soni va yo'nalishlari

To'qimachilik xomashyolarini ishlab chiqarish bo'yicha ipak tolasi ulushi kichik 0,2 % foizdan oshmasada, 60 dan ziyod mamlakatlarga tarqalgan. Asosiy ishlab chiqaruvchilarni esa Osiyo mamlakatlari tashkil etadi. Ma'lumki, ipakchilik sanoati sermehnat sohalardan biri hisoblanadi. Jumladan, Xitoyda 1 million ishchi mazkur


soha bilan band bo'lsa, bu ko'rsatkich Hindistonda 7,9 million, Taylandda esa 20 ming ishchini tashkil etadi. Xitoy jahon bozorida ipak ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha dunyodagi birinchi o'rinni egallab turgan yagona davlat bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son farmoniga ko'ra ipak qurtini parvarishlash, yetishtirilgan pilla xomashyosini xarid qilish, qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tayyor mahsulotni ichki bozorga yo'naltirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan yangi pillachilik klasterlari tashkil etildi (1-, va 2-rasmlar).




2-rasm. Pillachilik klasterlarini tashkil etadigan “O’zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar (viloyatlar kesimida)

2019-2025-yillarda “O’zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, xom, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 2018-yilga nisbatan 2025-yilda o'sish sur'ati - 5,7 baravarga, kalavalangan ipak iplari -8,4 baravarga, ipak matosi -8,2 baravarga, ipak gilamlari -40,8 baravarga, tayyor ipakli mahsulotlari -207,6 baravarga, ipak mahsulotlarining eksport hajmi esa -10,2 baravarga oshishi keltirilgan (3- va 4-rasmlar).



3-rasm. Respublikada tirik pilla yetishtirish ko'rsatkichi va prognozi, tonna

Prognozdagi rejalarni bajarish uchun viloyatlarda 76 ta Pillachilik klasterlari tashkil etilib korxonalariga tutzorlarni rivojlantirish uchun ekin yer maydonlari ajratilib berildi (2-rasm). Ma'lumki, mamlakatimiz qishloqlarida ayollarning aksariyat qismi ishsiz bo'lib, ko'pgina ishsiz yoshlar mavjud bo'lgan joylarda korxonalar xali qurilmagan, yangi ish joylari yaratilmagan bo'lishi mumkin. Bunday qishloqlarda ishsizlarga o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash tamoyilida faoliyat ko'rsatishga o'rgatish lozim. Ularga tegishli dastgoh va jihozlar yetkazilib, kasanachilik tashkil etilsa, ishsiz ayollarning bandligi ta'minlanadi. Natijada xar bir kishi o'z imkoniyatidan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik bilan shug'ullana boshlaydi. Ko'nikma hosil qilib, asta-sekinlik bilan u kattalashib boradi. Shu tariqa, bandlik muammosi o'z-o'zidan hal bo'lish imkoniyati yaratiladi.




4-rasm. Respublikada xom ipak ishlab chiqarish ko'rsatkichi va prognozi, tonna

Respublikamizning to'qimachilik sanoatini asosiy xomashyosi paxta tolasi, pilla va undan chuvib olinadigan xom ipak hisoblanadi. O'tgan asrning saksoninchi yillarida mamlakatimizda 1,5 mln. tonna paxta tolasi, 32 ming tonna xo'l pilla va 2,5 ming tonna xom ipak ishlab chiqilgan. Paxta tolasini atigi 5-6% to'qimachilik korxonalarida qayta ishlangan bo'lsa, qolgan tola xom-ashyo sifatida chetga sotilgan. Xom ipak esa to'laligicha qayta ishlanib milliy matolar va mumtoz krep matolari ishlab chiqarilgan.

“Pillachilik klasteri” usulida maqsadga erishish: xomashyodan tortib to raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotishgacha barcha texnologik jarayonlarni o'z ichiga qamrab olib, barcha xodimlarni bir maqsadga kelishilgan holda yo'naltirilib sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda manfaatdorligini his qilgan holda faoliyat yuritib qo'shimcha samara olish imkoniyatini yaratadi, innovatsiyani rivojlantirib, investitsiyani jalb qilishga qulay muhit paydo bo'lishidan iborat (5-rasm).

Ipak tolasi tabiiy polimer bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi fibroin oqsili, tashqi qismi esa seritsin moddasi bilan qoplangan. Fibroin β -qatlamli oqsil tuzilishiga ega bo'lib, yuqori darajadagi kristallik va mexanik mustahkamlikni ta'minlaydi. Seritsin esa tabiiy elim vazifasini bajaradi va pilla tolalarini mustahkam tutib turadi.




5-rasm. Pilla-chilik klasteri


Dissertatsiyaning “Pillalarni chuvib xom ipak olish jarayonlarining nazariy tadqiqi” deb nomlangan ikkinchi bobi chuvish dastgohida xom ipak shakllanishining nazariy tahliliga bag’ishlangan. Pillalarni chuvishda asosiy jarayon seritsinning qisman erishi yoki yumshashi natijasida fibroin tolalarining ajralib chiqishidir. Bu jarayon ko’proq issiqlik va gidrotermik muhit ta’sirida amalga oshiriladi. Nazariy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, haroratning oshishi seritsinning erish darajasini tezlashtiradi, biroq juda yuqori harorat fibroin tuzilishini yemirishi mumkin. Namlik va gidrotermik muhit tolalarning elastikligini oshiradi va chuvish jarayonini yengillashtiradi. Mexanik kuchlar (chuvish tezligi va kuchlanish) tolalarning uzilish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, xom ipak sifatini aniqlovchi asosiy ko’rsatkichlar - tolalarning uzunligi, ipning bir tekisligi, mustahkamligi va yorqinligidir. Bu ko’rsatkichlar chuvish jarayonining nazariy asoslarini to’g’ri belgilash orqali optimallashtiriladi.

Pilla chuvishning takomillashgan dastgohdagi pillalarning qozondagi harakati keltirilgan.

6-rasm. Pillalarni chuvishda hosil bo’ladigan tashqi kuchlar sxemasi



Ip hosil qilishda qozondagi bir nechta pillalarning suvda aylanma harakatida hosil bo’ladigan tashqi kuchlarni xisobga olgan holda chuvishdagi iplarning uzilishlarini kamaytirish orqali ipning sifat ko’rsatkichlarini oshirishga qaratilgan nazariy tahlillari keltirilgan. $A_1A_2 = S$ yoy bo’ylab pillaning qozondagi aylanmam harakatini ifodalaymiz. Suyuklik sirtida pillalarning harakatini ifodalovchi teyenglikni hosil qilamiz. Bunda pillalarga ta’sir qiluvchi




Suyuqlik sirtidagi pillaga ta’sir qiluvchi kuchlar ta’siridagi muvozanat tenglamasini tuzamiz

$$m \cdot g - F_A = 0$$


(1) tenglikdagi arximed kuchi $F_A = \rho_c \cdot V_{oc} \cdot g$ ga teng bo'ladi. bu yerda

(2)



7-rasm. Pilla chuvishda aylana qozondagi burchak tezliklarini turli xil

$\omega_{01} = 10pad/c$ $\omega_{02} = 15pad/c$ $\omega_{03} = 20pad/c$ qiymatlaridagi vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi



8-rasm. Pilla chuvishda qozon aylanasi radiusining turli xil


$r_1 = 15CM$ $r_2 = 20CM$ $r_3 = 25CM$ qiymatlaridagi vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

7-8-rasmlardan pillalarni chuvishda aylana qozondagi pillalarning harakat trayektoriyasidan shuni ta'kidlash lozimki, chuvish jarayonida ip hosil qilishdagi uzilishlar sonini kamayishi va bir tekisda ip olishda aylana qozondagi burchak tezligining $\omega_{02} = 15pad/c$ qiymatida aylanasi radiusining $r_1 = 15CM$ qiymatida pilla massalarini $m_2 = 20zp$ qiymatida bo'lishini grafiklardan ko'rishimiz mumkin. Agar aylana qozonining burchak tezligini $\omega_{02} = 15pad/c$ qiymatida pillalarni chuvishda bir tekisda cho'zilishini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari aylana qozonining radiusining $r_1 = 15CM$ qiymatida suvdagi pillalarning tebranishlari kam bo'lishi, ip hosil qilishda uzilishlar sonini kamayishiga sabab bo'ladi bundan tashqari o'rtacha pillalar massalari $m_2 = 20zp$ qiymatlarida taranglik kuchini bir tekisda o'zgarishi ipning sifat ko'rsatkichlarini oshishiga olib keladi.


Tadqiqotlar davomida pillalarni chuvish jarayonidagi aylanma harakatdagi hosil bo'ladigan parametrlarni ip hosil qilishdagi tahlili o'rganildi. Pillalarni aylanma harakatidan chivish jarayonida hosil bo'ladigan ipning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishda takomillashgan dastgohdagi pillalarning qozondagi harakatidan ipdagi elastik kuchini ifodalaymiz.

Yuqoridagi 7-8-rasmlardan ip hosil qilishdagi buramlarni bir tekisda uzatishdagi inersiya momentini aylana qozonning radiusi chuvish jarayonidagi burchak tezligiga va pillalarning o'rtacha massalariga bog'liqlik grafiklari aniqlangan. Pillalarning harakat trayektoriyasidan shuni ta'kidlash lozimki, chuvish jarayonida ip hosil qilishdagi uzilishlar sonini kamayishi va bir tekisda ip olishda aylana qozondagi burchak tezligining $\omega_{02} = 15pad/c$ qiymatida aylanasi radiusining $r_1 = 15CM$ qiymatida pilla massalarini $m_2 = 20zp$ qiymatida inersiya momentini vaqt bo'yicha bir tekisda o'zgarishi ya'ni bunda buramlarni ip sifatiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Dastlabki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pillalarni chuvish dastgohida ishlab chiqarilgan xom ipakning sifatga jipslilik va yopishganlik ko'rstkichlari sezilarli ta'sir ko'rsatib, mexanik va avtomat pilla chuvish dastgohlarida ular turlicha bo'ladi. Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pillalarni chuvish rejimlari olinayotgan xom ipakning chirmovning parametrlari muhim ahamiyatga ega bu parametrlar avtomat va mexanik chuvish dastgohlarida turlicha bo'ladi.



9-rasm. Pilla chuvish jarayonida buram hosil qilishdagi inertsiya momenti o'zgarishini burchak tezliklarining turli xil $\omega_{01} = 10pad/c$ $\omega_{02} = 15pad/c$ $\omega_{03} = 20pad/c$ qiymatlaridagi vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi



10-rasm. Pilla chuvish jarayonida buram hosil qilishdagi inertsiya momenti o'zgarishini qozon aylanasi radiusining turli xil $r_1 = 15CM$ $r_2 = 20CM$ $r_3 = 25CM$ qiymatlaridagi vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

Pilla qobig'ining tarkibidagi seritsinning holati bevosita pillalarni chuvishga tayyorlash, ya'ni bug'lash va yakka ip uchini topish jarayoniga bevosita ta'sir etadi. Bug'lash va pilla ipining yakka uchini topish dastgohlarida rejimlarni o'rnatish aynan seritsinning xususiyatiga chambarchas bog'liq. Bundan tashqari pillani chuvish jarayonida xom ipakning shakllanishi, pilla iplarining bir-biri bilan bog'lanishi, shuningdek, xom ipak kalavalarining charx qirralari qismida yelimlanish darajalari seritsin miqdoriga bevosita bog'liq. Shuni hisobga olish kerakki, xom ipakning mustahkamligini ta'minlashda ham seritsinning ahamiyati katta bo'lib, shuning uchun uni miqdorini kamaytirish ham salbiy natijalarga olib keladi.

1-jadval


Tajribani amalga oshirish rejasi. Tajribalardagi ($p = 1$) aniqlangan pillalardan ishlab chiqarilgan xom ipakning jipslik darajasi y_{uv} (%) aniqlandi.

№	Faktorlarning nomi, belgisi	Kodlash tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymati			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Pillalarni chuvish tezligi, v (m/min.)	x_1	80	90	100	10
2	Chuvish qozonining aylanishlar soni, (min^{-1})	x_2	60	70	80	10
3	Ilgich bilan pillalar orasidagi masofa, h (sm)	x_3	10	25	40	15

Matematik modellashtirishlar asosida regressiya tenglamasi olindi.

$$y := 75,18 - 6,8X_1 + 7,44X_2 - 16,81X_3 + 2,94X_1X_2 - 1,81X_1X_3 - 1,56X_1X_2X_3$$


x2 := -1, -0.9..1 x3 := -1, -0.9..1 x1 := -1
 YRkm(x2, x3) := 75.1875 - 6.8125x1 + 7.4375x2 - 16.8125x3



11-raslarda xom ipakning jipslik darajasi \hat{y} (%) ning har-xil qiymatlarda uchinchi omil (pilla va ilgich orasidagi masofa, x_3 , sm) ning uchta qiymatida $X_3 = -1$ ($x_3 = h = 15\text{cm}$), $X_3 = 0$ ($x_3 = 20\text{cm}$) va $X_3 = 1$ ($x_3 = 25\text{cm}$)

ikkinchi X_2 (chuvish qozonining

x1 := -1, -0.9..1 x3 := -1, -0.9..1 x2 := 1
 YRkm(x1, x3) := 75.1875 - 6.8125x1 + 7.4375x2 - 16.8125x3




12-rasm. X_2 omil (chuvish qozonining aylanishlar soni, ayl/min) va birinchi omil X_1 (pillalarni chuvish tezligi, m/sek) larning pilla va ilgich orasidagi masofa, $h=20\text{sm}$ bo'lganda xom

Xom ipakning eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bu- bog'lanuvchanlikdir. Tashqi kuchlar tomonidan ajratuvchi elementar iplar seritsin bilan yopishgan kompleks ipning qarshiligi bilan xarakterlanadi. Xom ipakning bog'lanuvchanligi darajasi bevosita chuvish parametrlariga bog'liq bo'ladi. Chuvish jarayonida xom ipakning past bog'lanuvchanligi kompleks ipning monolitligi va strukturasining buzilishi bilan shartlanuvchi pilla iplarining yetarlicha yopishmaganligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, xom ipakning uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilishi pillalarning bog'lanuvchanligiga bog'liq.

Dissertatsiyaning "Pillalarni individual chuvish dastgohini va texnologiyasini yaratish" deb nomlangan uchinchi bobi klaster tizimida pillalarni individual chuvishning yangi qurilmasi chuvish tozining aylanishi natijasida xom ipakka buram berish asosida yaratish va uning texnologik rejimlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Mamlakatimiz hududlarida ipak klasteri korxonalarida uchun qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va ishsiz aholini ish bilan band qilish maqsadida kichik hajmga ega, oddiy konstruktiv mexanizmlardan tashkil topgan, tan narxi arzon, yirik miqdordagi maxsus suv, elektr va issiqlik energiyasi hamda maxsus mutaxassislarni talab etmaydigan, foydalanishga qulay bo'lgan pillalarni individual chuvish dastgohi taklif etildi. Mazkur qurilma to'qimachilik sanoatining ipakchilik sohasining pilla chuvish korxonalarida hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun uy sharoitida pillalardan xom ipak olishda qo'llashga mo'ljallangan bo'lib, unga foydali model uchun O'zbekiston Respublikasining FAP 20210178 raqamli patenti olindi.

Pillalarimiz ingichka tolali bo'lgani uchun nazariy jihatdan chuvish tezligiga ta'sir qiluvchi omillar pillani suvdagi harakati, tortilish tarangligi, pillani shakli, harakatini hisobga olib nazariy tadqiqotlar amalga oshirildi. Pillalarni individual chuvib olishda 1,56; 1,89; 2,33; 3,23 va 4,65 chiziqli zichlikdagi xom ipak olishga mo'ljallangan aylanma harakatlanuvchi pillalarni chuvish qozoni, ilgich, yo'naltiruvchi qavariq gardishli slindr valigi va charxdan iborat bo'lib, dastgohdagi chuvish qozoni va charxning aylanma harakatlanishini ta'minlash mexanizmlari o'rnatilgan.



Bu yerda: 1-rama; 2-chuvish qozoni; 3-suvni isituvchi element; 4 yo'naltiruvchi ariqchali rolik; 5-yotqizuvchi rifli silindr; 6-chuvib olinayotgan xom ipak; 7-charx; 8-yorug'lik nurini qaytaruvchi yuza (ekran); 9- qozon parraklari; 10-infracizil nur chiqaruvchi lampa; 11, 12, 13, -tishli uzatmalar; 14,17-krivoship; 15-konusli tishli uzatma; 16, -ponasimon tasma A-1250; ponasimon tasma A-2240; tasmali uzatma;18- boshqaruv pedali; 19- mufta.

13-rasm. Pillalarni individual chuvib xom ipak olishga mo'ljallangan dastgohining umumiy texnologik chizmasi

2-jadval

Taklif etilayotgan individual pilla chuvish dastgohining texnik tavsifi

No	Tasnif ko'rsatkichlari	Individual chuvish dastgohi
1	Tomonlar soni	1
2	O'lchamlari, mm	
	-eni	900
	-uzunligi	2000
	-balandligi	800
3	Toz oldi o'lchamlari, mm	-
4	1 ta tozdagi ilgichlar	1
5	Charxlar soni	1
6	Charx perimetri, mm	1500
7	Aylanishlar soni, ayl/min	
	Chuvish qozoni	40-120
	Charx	60-150
8	Bitta tozga ketadigan elektr energiya quvvati, kv/soat	0,5
9	Suv sarfi kg/g	10

Diametri 45 mm, balandligi 20 mm bo'lgan chuvish qozoni va undagi chuvilayotgan pilla iplarining gorizontol 10-20 ayl/min tezlikda aylanma xarakatlanishi evaziga iplar buram olib xom ipak shakllanadi. Chuvib olinayotgan pilla iplarining yanada jiplashishi hamda charx kengligi bo'yicha bir tekis yig'ilishini ta'minlash uchun uzunligi 30 mm va diametri 10 mm bo'lgan qavariq gardishli silindr yo'naltirgich o'rnatilgan. Bunda xom ipak perimetri 1200 mm va kengligi 30 mm bo'lgan olti burchakli 50-60 ayl/min tezlikda aylanadigan charxga yig'iladi. Charxga yig'ilyotgan xom ipakning namligini yo'qotish maqsadida gorizontol charxga vertikal ravishda uzoqligi 25 mm bo'lgan masofada infraqizil lampasi o'rnatilgan.

3-jadval

Tut ipak qurtining dastaga chiqish kunlari kesimida pillalarning yetilganlik ko'rsatkichlari tahlili natijalari

Pilla o'rash kunlari	Kunlar bo'yicha dastaga chiqqan qurtlar miqdori foizda					
	1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun
	77/55					
1	Pilla o'rash	13/25				
2		Pilla o'rash	6/11			
3			Pilla o'rash	2/6,1		
4				1,2/1,7		
5	G'umbakka aylanish	G'umbakka aylanish	Pilla o'rash	Pilla o'rash	0,8/1,2	
6					Pilla o'rash	Pilla o'rash
7	G'umbakka aylanish	G'umbakka aylanish	Pilla o'rash	Pilla o'rash		
8					Pilla o'rash	Pilla o'rash
9	Pillani terish		G'umbakka aylanish	G'umbakka aylanish		
10	Pillalarni topshirish	Pillani terish		ayanish	G'umbakka aylanish	G'umbakka aylanish
11	Pillalarni quritish		Pillani terish			G'umbakka aylanish
12				Pillani terish		
13					Pillani terish	
14						Pillani terish

